

YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI MA'NAVIY TARAQQIYOT MANBAI SIFATIDA

Haydarov O.E., Qoraboyev S.M.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti

ANNOTATSIYA

Maqolada jamiyat va inson hayotida ma'naviyat va ma'naviy sohaning ahamiyati haqida to'xtalib o'tiladi. Shuningdek, Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan ma'naviy taraqqiyot masalalarida bildirilgan fikrlarning mazmun-mohiyati, sohaga oid e'lon qilingan huquqiy normativ hujjatlar, Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi hamda O'zbekiston – 2030 strategiyasi kabi davlat dasturlarida ma'naviyat va ma'naviy sohaga oid vazifalarnig aks etishi, ularga berilgan e'tibor masalalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, ma'naviy soha, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi, ma'naviy tarbiya, islohotlar, sohaga oid huquqiy normativ hujjatlar, Yangi O'zbekiston strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, ma'anaviy taraqqiyot, O'zbekiston-2030 strategiyasi

Insonning borlig'ida moddiylik va ma'naviylik jam bo'lgan. Insondag'i ana shu ma'naviylik, uning ma'naviy olami uni boshqa tirik mavjudotlardan ajratib, farqlab turadi. Insonning ma'naviy olami tushunchasi juda keng tushuncha bo'lib, o'z ichiga ko'plab ruhiy ma'naviy hodisa va jarayonlarni qamrab oladi. Binobarin, ma'naviylik va ma'naviy hayotning inson hayotidagi o'rni beqiyos. Chunki ma'naviyat – inson axloqi va odobi, bilimlari, iste'dodi, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarining bir-biri bilan uzviy bog'langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan mushtarak tizimidir.

Mustaqilligimizning dastlabki yillardanoq ma'naviyat, yoshlar tarbiyasi, barkamol avlod, komil insonni shakllantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari qilib belgilandi. Chunki har qanday davlatning, har qanday jamiyatning kelajagi, uning taraqqiyoti, jahonda o'z o'rniga ega bo'lishi masalalari uning yoshlarining bilimi, salohiyati, dunyoqarashi, ma'naviyatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

2017 yildan respublikamizda barcha sohalarda ta'birk joiz bo'lsa shiddatli islohotlar to'lqini boshlandi. Tan olish kerak, mana shu islohotlar amalga oshirila boshlangan davrda birmuncha vaqt ma'naviyat, ma'naviylik, shaxs ma'naviy olami kabi tushunchalar ozgina e'tibordan chetda qoldi, nazarimizda. Bunga sabablardan biri

sifatida esa ko‘p yillar davomida ma’naviyat sohasi va muassasalarining ma’naviyat bo‘limlariga haddan ziyod ko‘p vazifalar, turli tashkiliy va xo‘jalik ishlari bilan bog‘liq jarayonlar ham yuklatilganligini keltirishimiz mumkin. Natijada odamlarda ushbu so‘zdan bezishga o‘xshagan kayfiyat paydo bo‘lgandek edi, nazarimizda. Ammo masala shundaki shaxs ma’naviyati, insonning ma’naviy olami, umuman ma’naviyat sohasi va ma’naviylik hammavaqt dolzarb mavzu bo‘lib qolaveradi. Ayniqsa dunyoning bugungi globallashuv jarayonlari davrida bu har qachongidan ham katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

2021 yilning 19 yanvar kuni Prezidentimiz raisligida ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida davlatimiz rahbari bu masalaga alohida to‘xtalib, agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyat ekanini ta’kidladi. Keyinchalik sohaga oid bir qancha qarorlar e’lon qilindi. Jumladan, 2019 yil 3 mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy - ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son qarori, 2021 yil 26 martda “Ma’naviy- ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son qarori shular jumlasidandir.

2021 yil avgust oyida Mustaqilligimizning 30 yilligi bayrami oldidan Prezident Sh.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobi nashrdan chiqdi. Ushbu kitobda Yangi O‘zbekistonni va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish borasida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar va islohotlarning maqsadi, mazmun-mohiyati hamda ustuvor yo‘nalishlari, milliy taraqqiyotimiz istiqbollari haqida fikr yuritilgan. Kitobning alohida ahamiyatli tomoni shundaki ushbu asarning bo‘limlaridan biri “Ma’naviy taraqqiyot” deb nomlangan va unda ma’naviy yangilanish: imkoniyat va istiqbollar, yangi ma’naviy makonni yaratish borasidagi vazifalar, ma’rifiy ilohotlar va barkamol inson tarbiyasi, Yangi O‘zbekiston va ma’naviy yangilanish, ma’rifatli jamiyat sari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi kabi masalalar yoritib berilgan. Asarda ma’naviyat to‘g‘risida fikr bildirar ekan Sh.Mirziyoyev shunday ta’kidlaydi: “Mening nazarimda, insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi – ma’naviyat chirog‘i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg‘otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi. O‘zbekistonning yangi uyg‘onish davrini yaratishga kirishgan ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma’naviyat shu’iasi porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas’uliyat tuyg‘usi bilan yashashga da’vat etib turishi zarur”¹

¹ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.: О‘zbekiston. 2021

Asarda ta'kidlanishicha Yangi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga, ma'naviy-ma'rifiy jabhalarda amalga oshirilayotgan islohotlar ham muhim ahamiyatga ega. Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa uning joni va ruhi – ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchlli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz.

Ijtimoiy gumanitar yo'naliшhdagi adabiyotlarda ma'naviyatga berilgan ko'plab ta'rif va izohlarni uchratamiz. Ana shunday ta'riflardan birini "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan asarda ma'naviyatga shunday ta'rif beriladi: "Biz uchun ma'naviyat – insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birlgilikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, ma'naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir¹.

Sh.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asari ma'naviyat va uning jamiyat hamda inson hayotidagi o'mniga yangicha rakursdan qarash imkoniyatini beradi. Asar 2021 – yilda Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosi tugayotgan, yangi strategik dastur qabul qilinishi rejalashtirilayotgan yilda taqdim qilinayotganligi hisobga olinib, mamlakatimiz rivojlanishining keyingi davriga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida ma'naviy- ma'rifiy islohotlarga alohida bo'lim ajratilishi zarurligi ta'kidlanadi. Ana shu zaruriyatdan kelib chiqib 2022 yil 28-yanvar kuni qabul qilingan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmonda belgilab berilgan yetta ustuvor yo'naliшhning beshinchisi "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" deb nomlandi. Ushbu ustuvor yo'naliшh doirasida 71-78 maqsad (jami 8 ta maqsad)lar va ularni amalga oshirish vazifalari belgilandi.

Jumladan, Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi 71-maqсадida ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan «Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari» g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliylar harakatga aylantirish, "Yangi O'zbekiston – ma'rifikatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirish² maqsadi qo'yilgan. Ushbu maqsadni amalga oshirish aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish, targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning ta'sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish hamda ularni o'z

¹ Мирзиёев III. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.: O'zbekiston. 2021

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni

vaqtida amalga oshirish choralarini ko‘rish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

2023 yil 11 sentabr kuni “O‘zbekiston 2030 strategiyasi” to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Prezident Farmoni e’lon qilindi. Ushbu farmonda ham respublikamizda ma’naviy taraqqiyot borasida amalga oshirilayotgan ishlarni davom ettirish bo‘yicha rejalar ko‘zda tutilgan. Xususan, strategiyaning “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” deb nomlanadigan 1-bo‘lim 5-bandiga “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minalash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha islohotlar”¹ deb ataladi hamda u o‘z ichiga ma’naviyat va madaniyat sohasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan 38-44-maqсадларни (jami 7 ta maqsad) qamrab oladi. Strategiyada jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minalashga alohida e’tibor qaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, respublikamizda ma’naviyat va ma’naviy sohani rivojlantirish, ma’naviy taraqqiyotni ta’minalash masalasi hamma vaqt dolzarb masala bo‘lib qolaveradi. Bu esa ma’naviyatning inson uchun suv va havodek zarur ekanligi, jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minalash, yoshlarni aqlan yetuk, ma’nан barkamol qilib tarbiyalash kabi hayotiy ehtiyojlardan kelib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Ma’naviy- ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 5040-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021 y., 07/21/5040/0243-son.
4. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.: O‘zbekiston. 2021

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni